



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-74-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 1-mart kuni “Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash borasidagi dolzarb vazifalari to‘g‘risida”gi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi 18-sonli Bayonining 33-bandi ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tumanda xotin-qizlar muammolarini hal etilishi yuzasidan ko‘rilayotgan choralar to‘g‘risida tuman sektor rahbarlarining hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 1-mart kuni “Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash borasidagi dolzarb vazifalari to‘g‘risida” kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 18-sonli bayoni 33-bandi ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tumanda xotin-qizlar muammolarini hal etilishi yuzasidan ko‘rilayotgan choralar to‘g‘risida tuman sektorlari rahbarlarning hisobotlari xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 1-mart kuni “Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash borasidagi dolzarb vazifalari to‘g‘risida” kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 18-sonli bayoni 33-bandi ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tumanda xotin-qizlar muammolarini hal etilishi yuzasidan sektorlar rahbarlarning hisobotlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektorlari rahbarlari (Q.Mardonov, S.Ramazonov, S.Choriyev, N.Sharipov) Oila va xotin-qizlar bo‘limi (Sh.Rajabova) bilan birgalikda:

– har oy yakunida xotin-qizlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish orqali

ayollarning muammolari hal etilishi, ish bilan ta'minlash va doimiy daromad manbai yaratilishi borasida ishlarni tahlil qilish va o'rganib borish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi (Sh.Rajabova):

– har oyda sektor ishchi guruhi a'zolari hamda mutasaddi tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda “Ayollar daftari”ga kiritilgan ishsiz ayollarning muammolarini hal etish bo'yicha manzilli ishlashning samaradorligini oshirish, biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlaridan o'zlari saylangan hududlarida “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar oilalariga ijtimoiy himoyaga muhtoj oila sifatida belgilangan tartibda moddiy yordam berib borish hamda ularning muammolarini hal etish bo'yicha belgilangan vazifalarning samaradorligi ustidan ta'sirchan deputatlik nazoratini o'rnatilsin.

5. Tuman hokimligining tegishli mas'ullari tuman hokimligi matbuot xizmati va “Angor yog'dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva) bilan birgalikda:

– sektorlar faoliyati va ularning vazifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni aholiga etkazish va ularni xabardor qilish;

– tumanda ayollar bilan ishlash tizimi, xotin-qizlar muammolarini hal etish, turmush darajasini oshirish bo'yicha mahallalardagi sektorlar faoliyatini hamda belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishiga mas'ul korxonalar va tashkilot rahbarlari tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tanqidiy yoritib borish topshirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo'ziyeva) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov